



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**FAN:** YER RESURSLARINI BOSHQARISH

MAVZU

**05**

**O'RMON FONDI YERLARIDAN  
FOYDALDNISH**



**RO'ZIBOYEV S.B**



**Yer resurslarini boshqarish  
kafedrası dotsenti, PhD**



## Reja:

- 1. O‘rmon fondi yerlari to‘g‘risida tushuncha va huquqiy holatining umumiy tavsifi.**
- 2. O‘rmon fondi yerlaridan foydalanish huquqi va uning turlari.**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

## “O‘RMON TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma’qullangan

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan “O‘rmon to‘g‘risida”gi 770-I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 5, 122-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda; 2009-yil, № 12, 470-modda; 2011-yil, № 1, 1-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (**ilova** qilinadi).

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:  
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;  
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin;  
ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta‘minlasin.

## O'RMON FONDI YERLARIDAN FOYDALDNISH VA BOSHQARISHNING HUQUQIY MANBAALARI

- \* O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING O'RMON FONDI YERLARI VA SUG'ORILADIGAN YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH HAMDA YOG'OCHBOP MAHSULOTLAR YETISHTIRISH HAJMINI YANADA KO'PAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA 14.07.2021YILDAGI 422-SONLI QARORI QABUL QILINGAN BULIB BUNDA O'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanishni yanada takomillashtirish, respublikada pavlovniya va boshqa tez o'suvchi daraxtlar plantatsiyalarini tashkil etish, daraxtlarning yog'ochlilik jihatdan mahsuldorligini oshirish, ihota daraxtzorlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish dasturlarini sifatli shakllantirish, ekologik muhitni yaxshilash, shuningdek, respublikaga yog'och xomashyosi importi hajmini kamaytirish maqsadida

# МАВЗУНИ МУСТАҚИЛ ЎЗЛАШТИРИШ УЧУН ТАВСИЯ ҚИЛИНАЁТГАН МАНБАЛАР ВА АДАБИЁТЛАР

## Асосий:


1. Ben McFarlane, Nicholas Hopkins. Land Law: Text, Cases, and Materials. OUP Oxford, 2012
2. М.Х. Рустамбоев ва бошқ. Ер ҳуқуқи. – Т.: Тошкент давлат юридик институти, 2002. – 237
3. Земельное право республики Узбекистан. Учебник. Под. ред. М.Х. Рустамбаева. ҳуқуқи. Т.: ТДЮИ, 2007. - 215 стр.
4. А. Нигматов. Ер ҳуқуқи. – Тошкент.: “Ислом Университети”, 2001. – 191б.
5. А. Нигматов. Земельное право. – Тошкент.: “Ислом Университети”, 2001. – 189 б.
6. Узоқова Г.Ш. Аҳоли пункти ерларидан фойдаланиш ҳуқуқи. Т.: ТДЮИ, 2006. - 117 б.
7. М. Mirzaabdullaeva, A. Muqimov, Z. Xafizova. Yer huquqi, O'quv qo'llanma. - Т.: ТИМ, 2016. - 196 б
8. Земельное право: Учебник / С.А. Боголюбов, Э.А. Галиновская; Под ред. С.А. Боголюбова – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. - 400 стр.

## Қўшимча:

1. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси (9-БОБ), Ўзбекистон, Т.: 1998
2. Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Ўрмон тўғрисида”. - Т.: Ўзбекистон, 1995
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ости ҳужжатлари

## Интернет ресурслари:

1. [http:// www. colibri.ru/;](http://www.colibri.ru/)
2. [http:// www. Lex.uz](http://www.Lex.uz)



Rekreatsiya maqsadlari uchun mo'ljallangan va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar

## Qonunlar

## Qonun osti hujjatlari

### Umumiy ahamiyatdagi:

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.1992  
O'zbekiston Respublikasi qonuni «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»,1992  
O'zbekiston Respublikasi qonuni «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» . 2004

### Maxsus ahamiyatdagi:

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi. 30.04.1998  
O'zbekiston Respublikasi qonuni "O'rmon to'g'risida"  
15.04.1999  
O'zbekiston Respublikasi qonuni  
29.08.1998

O'zbekiston Respublikasi VMning 2017 yil 11 maydagi PQ-2966-son qarori "O'zbekiston Respublikasi O'rmon Xo'jaligi Davlat Qo'mitasi Faoliyatini Tashkil Etish To'g'risida»  
" O'zbekiston Respublikasi VMning 2000 yil 5 iyundagi 215-sonli qarori "O'rmonlarning qo'riqlanish toifalarini aniqlash tartibi to'g'risida NIZOM»  
"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 noyabrdagi 2005 yil 250-sonli "O'zbekiston Respublikasida o'rmon davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida Nizom"

# O'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari

«O'rmon to'g'risida» O'zR qonuni  
2-moddasi

Yer, suv, yer osti boyliklari va hayvonot dunyosidan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bilan bog'liq o'rmonlardan foydalanish sohasidagi munosabatlar tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rmonga oid munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining o'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. O'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, ulardan oqilona foydalanish, takroriy ko'paytirishni ta'minlash hamda o'rmonlar mahsuldorligini oshirish maqsadida o'rmonga oid munosabatlarni tartibga solishdan, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini muhofaza qilishdan iborat

# O‘RMON FONDI YERLARINING VAZIFASI

Qonun osti hujjatlari

O‘rmon fondi yerlari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘ziga xos yerlar toifasiga kiradi. Bu toifa yerlari ekologik ahamiyatga ega bo‘lib, jarliklarni kengayishining oldini oladi, suv va shamol eroziyasidan saqlaydi, ya’ni o‘sha yerda ekologik muhitini yaxshilashga yordam beradi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 iyun 215-sonli qarori hamda shu qarori bilan tasdiqlangan **“O‘rmonlarning qo‘riqlanish toifalarini aniqlash tartibi to‘g‘risida”** Nizom ham katta ahamiyatga ega.

O‘rmon fondi yerlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish xususiyati bu toifa yerlarini davlat kadastrini yuritish tartibi bilan ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 noyabr 2005 yil 250-sonli **“O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”** qarori bilan tasdiqlangan Nizom ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu kategoriya yerlarni muhofazalashga va ulardan oqilona foydalanish kadastr tartibini belgilaydi.

# O‘RMON FONDI YeRLARI TO‘G‘RISIDA TUSHUNChA VA UNING HUQUQIY HOLATINING UMUMIY TAVSIFI

Respublika yer fondi tarkibidagi muxim toifalardan biri o‘rmon

- \* fondi yerlaridir. Ushbu toifa yerlari O‘zbekiston yer fondi tarkibida
- \* mustaqil toifani tashqil etadi. Ushbu toifa yerlarining umumiy maydoni
- \* 2022 yilning 01.01 holatiga **11195.5 ming ga yoki 24.95%ni** tashkil etadi.
- \* O‘zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 8-moddasi 6-bandiga ko‘ra,


## O‘RMON FONDI YeRLARI TUSHUNChASI

O‘rmon bilan qoplangan

‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa xam , o‘rmon xo‘jaligi extiyojlari uchun berilgan yerlar

«O‘rmon to‘g‘risida» qonunning 4-moddasiga ko‘ra o‘rmonlar davlat mulki — umummilliy boylik bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish lozim hamda ular davlat tomonidan qo‘riqlanadi

## O'rmon fondi yerlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi (% hisobida)



# Оʻрмон фонди yerlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar boʻyicha taqsimlanishi

(минг га.хисобида)

Т/р	Республика ва вилоятларнинг Номи	Умумий ер майдони	Экин ерлар	Кўп йиллик дарахтзорлар					Бўз ерлар	Пичанзорлар ва яйловлар	Жами юншюк хўжалик ерлари	Томорча ерлар	Ўрмонзорлар	Бошқа ерлар
				жами	шу жумладан:									
					боғлар	узумзорлар	тутзорлар	мелии кўчазорлар ва бошқа инвентаризация						
1	Қорақалпоғистон Республикаси	5751	3,2	0,2				0,2	1,4	735,3	740,1	0,1	1009,2	4001,6
2	Андижон	7,8	0,6	0,2	0,2				0,3	2,2	3,3		1,6	2,9
3	Бухоро	633,7	0,3	0,2	0,1	0,1			0,4	207,6	208,5		326	99,2
4	Жиззах	290,3	3	1,6	1,4		0,1	0,1	0,1	95,4	100,1	0,3	153,8	36,1
5	Қашқадарё	398,4	2,2	0,3	0,3				1,1	172,8	176,4	0,2	150,2	71,6
6	Навоий	2908	3	0,2	0			0,2	0,1	1598,6	1601,9	0	1269,3	36,8
7	Наманган	126,9	0,7	0,4	0,3		0,1		0,1	87,4	88,6	0,3	17,7	20,3
8	Самарқанд	56,4	2,8	4	3,9			0,1		31,8	38,6	0,5	7,7	9,6
9	Сурхондарё	324,4	1,5	0,7	0,2			0,5		71,3	73,5	0,5	171,2	79,2
10	Сирдарё	11,1	2,7	0					0,6	1,6	4,9	0	1,8	4,4
11	Тошкент	589	1,9	1,1	1			0,1		227,3	230,3	0,1	73,9	284,7
12	Фарғона	15,2	0,3	1	0,9			0,1		0,4	1,7	0,1	7,1	6,3
13	Хоразм	87,3	0,2	0,1				0,1		50,9	51,2		32,6	3,5
14	Тошкент ш.													
	<b>Жами:</b>	<b>11199,5</b>	<b>22,4</b>	<b>10</b>	<b>8,3</b>	<b>0,1</b>	<b>0,2</b>	<b>1,4</b>	<b>4,1</b>	<b>3282,6</b>	<b>3319,1</b>	<b>2,1</b>	<b>3222,1</b>	<b>4656,2</b>

# O'rmon fondi yerlarining vazifasi

«O'rmon to'g'risida» O'zR qonuni

O'rmon fondi yerlari boshqa yerlarga nisbatan ekologik ahamiyatga ega bo'lib, u tirik mavjudod yashashi uchun ekologik sharoitni ta'minlab, hayvonot dunyosini boqadigan, oziqlantiradigan, (havo) atmosferaning musaffoligini, suvning mo'l-ko'l bo'lishini, hayvonot dunyosining erkin yashashi va ko'payishini hamda nabotat olami va shifobaxsh o'simliklarning normal o'sishini ko'payishini ta'minlaydigan manbadir.

Chunki, u mavjud yerlar turli-tuman foydali hayvon va parrandalar, yovvoyi meva va zamburug'lar, qimmatli mo'ynalar, kasallikni davolaydigan o't-o'lanu, shifobaxsh o'simliklarni armug'on etadigan hamda suv va havoning musaffoligini hamda mo'l-ko'l bo'lishini saqlashda, xalq xo'jaligini rivojlantirishda ulkan hissa qo'shadigan tabiat boyligidir.

Ta'kidlash joizki, o'rmon fondi yerlari, ekologik ahamiyatga ega bo'lib, (suvni muhofaza qilish, qo'riqlash, sanitariya-gigiena, sog'lomlashtirish, rekratsion), estetik va boshqa vazifalarni ham bajaradi.

Shuning uchun ham qadimgi Rimning mashhur jamoat arbobi sitseron "O'rmonlarni yo'qotuvchi kishilar jamiyatimizning dushmanidir", degan edi.

# DAVLAT O‘RMON FONDI TARKIBI

(“O‘rmon to‘g‘risida” O‘ZR qonuni 5-moddasi)

Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘rmonlar

Boshqa idoralar va yuridik shaxslar foydalanishidagi o‘rmonlar

Davlat o‘rmon fondida birlamchi ma‘lumotlar

O‘rmon to‘g‘risida” O‘ZR qonuni 8-modda

Davlat o‘rmon fondi uchastkalari davlat o‘rmon fondining birlamchi hududiy birligi bo‘lib, ularning chegarasi, maydoni, joylashgan manzili, huquqiy rejimi qayd etilgan xamda chizma–kartografik materiallarda ko‘rsatilgan bo‘ladi

**Oʻrmonlarning  
foydalanish  
axamiyati**

**Oʻrmonga boʻlgan mulkchilik**  
Oʻrmonlar asosan ekologik (suvni muhofaza qilish, qoʻriqlash, sanitariya-gigiena, sogʻlomlashtirish, rekreatsion), estetik va boshqa vazifalarni bajaradi, cheklangan darajadagi foydalanish ahamiyatiga ega

**Oʻrmonga boʻlgan  
mulkchilik**

**Oʻrmonlar davlat mulki —  
umummilliy boylik boʻlib, ulardan  
oqilona foydalanish lozim hamda  
ular davlat tomonidan qoʻriqlanadi.**

**O‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirish sohasida boshqaruvni qaysi tashkilot yuritadi?**

“O‘rmon to‘g‘risida”  
O‘ZR  
qonunning  
9-moddasi

**O‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirish sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muxitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.**

**O‘zbekiston Respublikasi O‘rmonchilik qo‘mitasi va uning joylardagi organlari davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari hisoblanadi.**

O‘rmonlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish

davlat o‘rmon fondini tasarruf etish

O‘rmonlarning qo‘riqlanish toifalarini aniqlash tartibini belgilash

O‘rmondan foydalanganlik uchun haq undirish tartibi va miqdorlarini belgilash

o‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirish ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish

o‘rmonlarning davlat hisobini va davlat o‘rmon kadastrini yuritish tartibini belgilash

o‘z vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish

O‘rmonga oid munosabatlarni tartibga solish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari (10-modda)

O'rmonga oid munosabatlarni tartibga solish sohasida Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari (11-modda)

davlat o'rmon xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda yuridik va jismoniy shaxslarga davlat o'rmon fondi uchastkalarini berish

o'rmonlarning davlat hisobi va davlat o'rmon kadastri yuritilishini ta'minlash

o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko'paytirish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish

o'rmonlar xolatiga zarar yetkazgan hollarda korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini cheklash, to'xtatib qo'yish va tugatish to'g'risida qarorlar qabul qilish

o'rmonlarda mol boqish hamda yog'ochga taalluqli bo'lmagan resurslardan foydalanishning boshqa turlari normalarini davlat o'rmon xo'jaligi organlari bilan birgalikda belgilash va tartibga solish

o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko'paytirish borasida, aholining ma'rifatli bo'lishini tashkil etish

o'z vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish

1

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi daraxtlar va to'p-to'p daraxtlar, ekinzorlarning ixota daraxtzorlari, shuningdek boshqa daraxtzorlar va butazorlar

2

temir yo'l, avtomobil yo'lari, qanallar va boshqa suv ob'ektlarining ajratilgan mintaqalaridagi ixota daraxtzorlari

**O'rmon fondi yerlari tarkibiga kirmaydigan yerlar (6-modda)**

\*ko'kalamzorlashtirish uchun eqilgan o'simliklar

4

\*tomorqalardagi va  
\*bog' uchastkalaridagi daraxtlar

\*

3

**O'RMON  
TUZISH  
(3-bob  
18-modda)  
(o'rmonlarni  
muhofaza  
qilish,  
qo'riqlashga,  
o'rmon  
xo'jaligi va  
o'rmondan  
foydalanish  
oqilona  
yuritilishini  
ta'minlashga  
qaratilgan  
tadbirlar tizimi)**

davlat o'rmon fondi uchastkalarining chegaralarini belgilash va davlat o'rmon fondining o'rmondan doimiy foydalanuvchilar foydalanishidagi hududining ichki xo'jaligini tashkil etish

topografiya-geodeziya ishlarini bajarish va o'rmonlarni maxsus xaritaga kiritish

davlat o'rmon fondini hisobga olish

o'rmonlarning yetilish yoshini belgilash, o'rmon xo'jaligini yuritish bilan bog'liq o'rmon daraxtlarini kesish rejasini, daraxtlarni kesish hajmini hamda o'rmondan foydalanishning boshqa turlari miqdorlarini aniqlash

o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, qayta tiklash va barpo etish borasidagi ishlar hajmini, shuningdek boshqa o'rmon xo'jaligi ishlari hajmini aniqlash

o'rmon tuzish loyihalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish

## **O‘rmonlarning davlat hisobi (17-modda)**

O‘rmonlarning davlat hisobi o‘rmon tuzish loyihalari asosida davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari tomonidan, o‘rmon tuzish o‘tkazilmagan joylarda esa davlat o‘rmon fondini hisobga olish va tekshirish materiallari asosida olib boriladi. O‘rmonlarning davlat hisobi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan yagona tizim bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda olib boriladi

## **Davlat o‘rmon kadastri (18-modda)**

Davlat o‘rmon kadastri o‘rmonlarning tabiiy, xo‘jalik Davlat o‘rmon kadastri o‘rmonlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, davlat o‘rmon fondi uchastkalarining sifat tavsiflari hamda ularning o‘rmondan foydalanuvchilar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat o‘rmon kadastri manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni o‘rmonga oid munosabatlarni tartibga solish, o‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan oqilona foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirish maqsadida o‘rmon to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan. Davlat o‘rmon kadastri davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari tomonidan davlat budjeti mablag‘lari hisobidan yagona tizim bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda olib boriladi